O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ANDIJON VILOYATI HOKIMINING
QARORI

Andijon shaxar, Abdurauf Fitrat ko’chasi 239-uy

2023 - yil 9 - sentabr 238-1-0-Q/23 Andijon viloyati hokimligi

Viloyatda jamoat transportini rivojlantirish hamda yo‘lovchilar transportida yo‘lovchilar tashish haqining yangi tarifini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-59-sonli qarorida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 7-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Viloyat transport boshqarmasining 2023-yil 2023-yil 7-avgust kungi 531-sonli hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 12-iyuldagi 02/05-32-/617-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga asosan Andijon shahrida:

– bir yo‘lovchi uchun elektron to‘lov kartalari (ATTO) orqali to‘lov amalga oshirilganda 1 martalik rag‘batlantiruvchi tarif – 1 500 (bir ming besh yuz) so‘m;

– bir yo‘lovchi uchun qatnov naqd pul orqali amalga oshirilganda cheklangan tarif – 2 000 (ikki ming) so‘m;

– yo‘nalishli taksi xizmatida bir martalik foydalangandagi cheklangan tarif 3000 (uch ming) so‘m etib belgilansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-son qaroriga asosan:

– qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan tarif rejalarining narxlari 1 500 so‘mdan hisoblangan holda 1-ilovaga muvofiq;

– elektron to‘lov kartalaridan foydalanilganda almashish tarif rejalarining narxlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar atrofi yo‘nalishlarida bir yo‘lovchi kilometr uchun tarif:

– avtobuslarda 150 (bir yuz ellik) so‘m;

– yo‘nalishli taksi (mikroavtobus)larda 245 (ikki yuz qirq besh) so‘m;

– yo‘nalishli taksi (damas)larda 300 (uch yuz) so‘m etib belgilansin.

5. Viloyat transport boshqarmasi Andijon shahrida avtobuslarda aholiga yo‘lovchi tashish xizmati sifatini oshirish, avtobuslarning harakatlanish jadvallariga va oraliq masofalariga rioya etilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatsin.

6. Viloyat hokimining ushbu qarori qabul qilinishi munosabati bilan 2022-yil 11-oktabrdagi 461-1-0-Q/22-sonli viloyat hokimining qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Viloyat hokimining matbuot kotibi M.Ibroximov mazkur qarorni tegishli ommaviy axborot vositalari hamda rasmiy nashrlarida e’lon qilish choralarini ko‘rsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilinganidan so‘ng kuchga kiradi.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari I.Xolmatov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **SH.Q.Abdurahmanov**

Andijon viloyat hokimining
2023-yil 9-sentabrdagi
238-1-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan
TARIF REJALARI

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Tarif turlari (kun)	Tarif turidagi qatnovlar soni	Tarif rejalarining narxi, so‘m
1.	“AV” avtobus, elektrobus - aholi uchun*	1	-	5000
		5	22	25000
		7	-	35000
		10	44	50000
		15	66	76000
		20	88	101000
		30	130	150000
		90	-	450000
		180	-	900000
		365	-	1826000
3.	“N” avtobus, elektrobus - pensionerlar va nogironlar uchun**	1	-	2500
		5	22	12500
		7	-	17500
		10	44	25000
		15	66	38000
		20	88	50500
		30	130	75000
		90	-	225000
		180	-	450000
		365	-	913000
4.	“T” avtobus, elektrobus - talabalar uchun**	1	-	2500
		5	22	12500
		7	-	17500
		10	44	25000
		15	66	38000
		20	88	50500
		30	130	75000
		90	-	225000
		180	-	450000
		365	-	913000
5.	“O‘” avtobus, elektrobus - o‘quvchilar uchun**	1	-	2500
		5	22	12500
		7	-	17500
		10	44	25000
		15	66	38000
		20	88	50500
		30	130	75000
		90	-	225000
		180	-	450000
		365	-	913000

Izoh: *) Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi: X*1500-23%;

****)** Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi: X*1500-23%-50%, bunda:

X – transportda qatnovlar soni;

1500 so‘m – yo‘l chiptalarini hisoblash uchun qabul qilingan cheklangan tarif;

23 % - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-son qarori bilan to‘liq qiymatidan belgilangan chegirma miqdori;

50 % - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-son qarori bilan, chegirishni hisobga olgan holda, tarif rejasi qiymatidan qo‘llanadigan imtiyoz.

Andijon viloyat hokimining
2023-yil 9-sentabrdagi
238-1-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Elektron to‘lov kartalaridan foydalanilganda almashish

TARIF REJALARINING NARXLARI

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Almashish turlari	Tarif rejalarining narxi, so‘m
1.	1 soatlik A+A+A+A	birinchi avtobusda to‘lov	1500
		ikkinchi avtobusda to‘lov	1000
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to‘lov	0

Izoh: ***)** Mazkur tarif rejalarini narxi faqat bir transport turi uchun transport kartalari orqali to'lov amalga oshirilganda qo'llaniladi